

**OLIY TA'LIM TALABALARINING KOMPETENTLIGINI ShAKLLANISHIDA
MUSTAQIL TA'LIMNING ROLI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831429>

Razzoqov Baxtiyor Xabibullayevich
Farg'onan Davlat Universiteti o'qituvchisi

Maqolada tayyorlanayotgan mutaxassislarning kompetentligini aniqlash mezonlari, uni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan talabalarni mustaqil o'quv ishlarini ahamiyati keltirilgan.

V state privyedenyi kriteriy opredelyayushie kompetentnosti podgotavlivayemykh spesialistov faktorov, vliyayushix na yeyo formulirovaniya, v chastnosti znacheniya samostoyatelnoy uchebnoy raboti studentov.

In the article is presented, the criterion determining the competence of specialists trained factors influencing its formulation, in particular the values of students' independent educational work.

Kompetentlik atamasi lotincha “competo” so‘zidan olingan bo‘lib, “erishyapman, munosibman” degan ma’noni anglatadi xamda ma’lum sohadan xabardorligini, bilishini va tajribaga ega ekanligini bildiradi [1].

Rus olimlari E.Zeer, D.Zavodchikovlar “kompetentlik” atamasiga mutaxassisning o‘z faoliyatini samarali tashkil kilishga karatilgan hattiharakatlar yigindisi deb karashadi [2]. Ogayo shtati universiteti olimlari “kompetentlik” tushunchasini shaxsning ma’lum sohada samarali ishlashi uchun kerak bo‘lgan ko‘nikma va malakalar to‘plami deb hisoblaydilar [3].

Ushbu sohaning yetakchi tadkikotchilaridan biri bo‘lgan amerika olimi R.Meyers “kompetentlik - bo‘lajak mutaxassisning qandaydir ma’lum kriteriylargacha javob berishi emas, balki uni ishlab chikarishda ko‘llab, isbotlay olishidir” - degan xulosani beradi [3].

Rus olimasi M.M.Shalashovaning fikricha mutaxassisning kompetentligi uning integrallashgan shaxsiy xususiyati bo‘lib, xayotda va ish faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni o‘z bilimi, tajribasi va shaxsiy iqtidori asosida hal kila olish kobiliyatini tushuniladi [4]. Odatda ishlab chikarishda mutaxassisning kompetentligi kuyidagi

- ko‘rsatkichlarga qarab aniqlanadi:
- kasbiy layoqatlilik;
 - o‘z sohasini yaxshi bilishi;
 - kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi;
 - o‘z ustida ishlab borishi;
 - o‘zining qabul qilgan qarorlariga ma’sulligi.

Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) bo‘lajak mutaxassisni kompetentligini aniqlash nixoyatda muhim masala sanaladi. Chunki bo‘lajak mutaxassisning ishlab chikarishda faoliyat yuritishi uning kompetentligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda Rossiya va

ayrim qo'shni davlatlar OTMlarda talabani mutaxassis sifatida shakllanganlik darajasini uning o'qish davridagi faoliyatini kompleks baholash orqali amalga oshirish taklif qilinmokda. Bu holda talabaning quyidagi ishlardagi ishtiroki hisobga olinadi:

- kurs ishlari ximoyasi natijasi;
- bitiruv malakaviy ish ximoyasi natijasi;
- talabaning ilmiy-tadkikot ishlardagi ishtiroki;
- talabaning turli tanlov, ko'rgazma va boshka yig'lnlardagi qatnashuvi;
- pedagogik va ishlab chiqarish amaliyot yakunlari;
- talabaning fan olimpiadalari, respublika va xalkaro konferensiyalar, ilmiy seminarlardagi ishtiroki va erishgan natijalar;
- talaba sport va boshka sohalarda erishgan yutuqlari.

Yukoridagi ko'rsatkichlarni kompleks baholash natijasida bitiruvchi talabaning kompetentligini aniqlash mumkin deb hisoblanadi.

Bizning ko'p yillik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, "kompetentlik" tushunchasi shaxsning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari bo'lib, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llay olishi hamda qo'yilgan muammo va vazifalarni mustakil hal qilish layoqatiga ega ekanligi bilan tavsiflanishi lozim bo'ladi. U o'zida bitiruvchiningmustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini mujassamlashtiradi.

Kompetentlikni shakllantirishda asosiy o'rinni talabalar mustakil ishlari egallaydi. Chunki bo'lajak mutaxassis faqat bilim va ko'nikmaga

ega bo'libgina kolmay, uni amalda qo'llay olishi talab qilinadi. Bunga esa ta'lim jarayonida talabalarni muammoli topshiriq va vazifalarni mustaqil holda hal qilishga o'rgatish orqali erishish mumkindir [5].

Hozirgi kunda Respublikamizning tayanch OTMlarda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining kompetentligini aniklash mezonlarini ishlab chikish yuzasidan ayrim ishlar boshlab yuborildi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bo'lajak mutaxassisning kompetentligini shakllantirishda malakaviy amaliyotlarning o'mni xam benihoya kattadir. Shuning uchun OTM larda malakaviy amaliyotlarning o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va uni samaradorligini oshirish masalalarini hal etish zarur hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasasining bitiruvchisi amaldagi DTS talablariga ko'ra ma'lum o'quv fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi, bakalavr uchun bitiruv ishi yoki magistr uchun dissertatsiya ximoyasini o'z ichiga oladi. Davlat attestatsiyasi komissiyalari yuqoridagilarni hisobga olgan holda bitiruvchilarga kvallifikatsiya berish to'g'risida qaror chiqaradi. Ammo bu ko'rsatkichlarni bitiruvchining kompetentlik darajasini aniqlashda yetarli emasligini ko'pchilik tan olmoqda. Ikkinchini tomondan kompetentlik ko'p jihatdan shaxsning intellektual-psixologik hususiyatlari bilan chambarchas bog'lik bo'ladi. Shu sababli bizning fikrimizcha OTMlarda fan bo'yicha talabalarning kompetentligini aniqlashda quyidagi mezonlar ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- talabaning fan bo'yicha egallagan bilimi, ko'nikmasi va malakasini amalda qo'llay olishi;

- intellektual qobiliyati;
- psixologik hususiyatlari;
- muammoni mustaqil hal qila olishi;
- yangiliklarga intiluvchanligi;
- o‘z ustida ijodiy ishlashi;
- o‘z fikrini aytga olishi va himoya qilishi.

Ushbu mezonlar fan bo‘yicha talabalarni kompetentlilik darajalarini ishlab chiqishda tayanch OTMlar kafedralari tomonidan e’tiborga olinishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar bo‘lajak mutaxassislarini tarbiyalashda asosiy o‘rinni mustaqil ta’lim egallashlarini unutmasliklari lozim. Chunki, talaba mustaqil holda shug‘ullanganda va o‘z ustida ishlaganda bilimni chuqur o‘zlashtirishi mumkin. Mustaqil ishslash jarayonida talabada ishga ijodiy qiziqish paydo bo‘ladi, u faollashadi. Shu sababli ta’lim berishda o‘quv materialining ma’lum qismini talaba mustaqil ishi sifatida rejalashtirish maqsadga muvofiqdir. Natijada talabalarda kompetentlilikni shakllantirish uchun zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.I.Karimov. M.X.Shamxmirzayev. Texnologiya fanini o’qitishda pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo’llanma-Tashkent. ToshMU “Universitet” nashiriyoti 2020-yil. 190 b.
2. Razzoqov B.X. Milliy qadriyatlar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasb madaniyatini shakllantirish. Mug‘allim ham uzliksi bilimlendirio’. Nukus- 2021. № 3/3. 52-54 b.
3. Bakhtiyor.Kh.Razzokov. The System Of Formation Of Professional Culture Of Teachers Of Future Technological Education Through National Values. Journal of Positive School Psychology 2022.Vol.6.No.4.1659-1665. <http://journalppw.com>
4. Razoqov B.X. Mutalipov R.R. “BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA`LIMNI TASHKIL ETISH” Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal «VESTNIK NAUKI» № 12 (45) T.3 2021
5. Razoqov B.X. Mutalipov R.R. “PROFORIYENTATSIYA STUDENTOV NA OSNOVE NATSIONALNOY PROGRAMMЫ” Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal, № 11 (99), 2021
6. Razoqov B.X. Raximov B.X. “BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA`LIM O‘QITUVCHILARINI KASB MAXORATINI SHAKLLANTIRISHDA KREATIVLIK” Mejdunarodnyu nauchnyu jurnal «VESTNIK NAUKI» № 2 (47) Tom-2. 2022
7. Razzokov B.X. Yokubjonova M. H. “FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS FOR TEACHERS” ISSN 2770-0003 Volume 7 Texas Journal of Multidisciplinary Studies 2022

8. V.T.Rajapov. M.M.Ahmedov. Z.A.Teshaboyev. O'qitish jarayonida tashkiliy va innovatsion sinf-dars shakillaridan foydalanish. Uslubiy tavsiyanoma. FVPHQTMOH markazi. 2021.-67 b.

9. I.I.Karimov. D.X.Mamatov. Umumta'lism maktablaridatexnologiya fanini o'qitirishda yangi pedagogic texnologiyalarini qollash. O'quv- uslubiy qo'llanma Farg'ona. "poligraf Super Servis" MCHJ 2021 yil.-218 b.

10.B.Rahimov.F.Ergashyev.G` Hudoyberdiyev. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirish masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari BuxDU. 2017 yil 14-15 aprel

11.B.Rahimov.Uzluksiz ta'lim tizimida ilmiy-ijodiy ishlarni samarali tashkil etish mazmuni Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 1-tom. 10-12 betlar. Nukus. 2019 y

12.B.Rahimov.B.Nazarova Sh.Yo'ldashev. Boshlag'ich sinf o'qituvchisini o'quvchilarni milliy hunarlarga yo'naltirishga tayyorlash texnologiyasi. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ilmiy-uslubiy jurnal. №2 T. 2021. 53-57-betlar.

13. B.Rahimov. Yoshlarni tadqiqotchilik faoliyatga yo'naltirishda modulli texnologiyalardan foydalanish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. UZPFITI. 2018 yil avgust

14. B.X.Rahimov.M.T.Xodjiyev.F.G.Sharipov. Umumiyy pedagogika. Darslik. Toshkent. 2020 yil

15. O.Qo'sinov.B.Olimov.Texnologiya fanini o'qitishning uzluksizligi va uziyligini ta'minlash. «Innovatsion ta'lim: xalqaro tajribalar, muammo va yechimlar» XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN. TOSHKENT SHAHRIDAGI YODJU TEXNIKA INSTITUTI 2021

16. B.Olimov. TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI «INNOVATSION G'OYALAR, ISHLANMALAR AMALIYOTGA: muammolar, tadqiqotlar va yechimlar» 2021 yil 21 aprel, Andijon Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman

17.B.U.Olimov.I.T.Uluxanov.M.O.Turg'unpo'latov. Kadrlar tayyorlashda ta'lim-tarbiya sifatini oishirishning samarali yo'llari. Ilm sari ilk qadam. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. 82 bet.Toshkent - 2016 yil